

REZYUME. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy-geografik tadqiqotlarning shakllanishi va rivojlanishi ko‘rib chiqiladi. Unda asosiy e‘tibor iqtisodiy va ijtimoiy-geografik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari va ularning evolyutsion o‘zgarishlariga qaratilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается становление и развитие экономических и социально-географических исследований в Республике Узбекистан. Уделяется внимание основным направлениям экономических и социально-географических исследований и их эволюционным изменениям.

SUMMARY. This article examines the formation and development of economic and socio-geographical research in the Republic of Uzbekistan. It focuses on the main areas of economic and socio-geographical research and their evolutionary changes.

RESPUBLIKA IQTISODIY RAYONLARI SANOATI IXTISOSLASHUVINING UMUMIY JIHATLARI

D.R.Ro‘zmetov – geografiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Xorazm Ma‘mun akademiyasi

F.M.Komilova – tayanch doktorant

Urganch davlat universiteti

Tayanch so‘zlar: iqtisodiy rayon, sanoat ixtisoslashuvi, diversifikatsiya, modernizatsiya.


Ключевые слова: экономический район, промышленная специализация, диверсификация, модернизация.

Key words: economic district, industrial specialization, diversification, modernization.

Kirish. Mamlakatlarda sanoat ishlab chiqarish evolyutsion yo‘l, ayrim hollarda, inqilobiy o‘zgarishlar bilan taraqqiy etadi. Qulay iqtisodiy geografik o‘ringa ega mamlakatlarning ayrimlari N.Kondratevning bir yoki bir necha siklini sakrab o‘tib rivojlangan davlatlar qatoriga kirishi mumkin. Ammo, O‘zbekistonga o‘xshash transport geografik o‘rni noqulay va bozor munosabatlariga yaqinda qadam qo‘ygan davlatlar iqtisodiyoti, jumladan sanoatini rivojlantirishda taraqqiy etgan jahon mamlakatlari iqtisodiy modellari eng maqbul taraflarini tanlagan holda milliy modelni yaratishni talab etadi.

Ishning maqsadi va vazifalari. Respublika sanoatining yirik hududiy tuzilma-rayonlar darajasida tashkil etilishi, ixtisoslashuvining bozor munosablari sharoitida turlanishi, rivojlanish tendensiyalariga umumiy baholash. Maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar ko‘zlangan: 1) ixtisoslashgan sohalar tarmoq tarkibi rivojlanishi; 2) energiya ishlab chiqarish sikllari taraqqiyotini tavsiflash va xulosalar chiqarish.

Asosiy qism. O‘zbekistonda sanoati 1991-1997-yillarda bazaviy mavjud sanoat tarmoqlarini rivojlantirildi va ayrim noan‘anaviy sanoat tarmoqlariga, masalan avtomobilsozlikka, asos solindi, ishlab chiqarishi 1997-yilga kelib 1990-yilgi ishlab chiqarish hajmini tikladi. 1997-2001-yillarni qamrab olgan ikkinchi davrda sanoat siyosati yoqilg‘i-energetika, kimyo sanoati va og‘ir sanoatning ayrim tarmoqlarida zamonaviy korxonalar barpo etishga qaratildi. 2002-yildan 2016-yilgacha bo‘lgan davr sanoatning turg‘un davri sanaladi, bazaviy tarmoqlarda ishlab chiqarishning turg‘unlashuvi va fondlarning eskirish sanoat ishlab chiqarishida yaqqol o‘zgarishlar yasamadi. Nisbatan sanoat ishlab chiqarishining «B» guruhiga kiruvchi tarmoqlar, xususan, to‘qimachilik, trikotaj-tikuv va oziq-ovqat, ya‘ni qishloq xo‘jalik xomashyosini qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari rivojlandi. 2016-yildan sanoat tarmoqlarida amalga oshirilgan modernizatsiyalash hamda yangi quvvatlarni ishga tushirish evaziga, soha tez sur‘atlarda rivojlana boshladi. Xususan, 2016-2025-yillar oralig‘ida sohaning YaIM dagi hissasi salkam 7 foizga ortib YaIM ning ¼ qismi sanoatda hosil qilinmoqda (1-rasm).




1-rasm. 2010-2023-yillarda respublika YAIM tarkibi.


Manba: O‘zR statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.

Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekiston sobiq Ittifoq respublikalari orasida aholi jon boshiga iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha 13-o‘rinni egallagan, Toshkent, Zarafshon, Farg‘ona iqtisodiy rayonlarida respublika sanoatining 70-80 foizi mujassamlashgan. Sanoat salohiyati past Quyi Amudaryo, Mirzacho‘l va Janubiy iqtisodiy rayonlari asosan yengil va oziq-ovqat sanoati, qisman tog‘-kon sanoati majmulari rivojlangan [1, 3, 4]. Shu bois, mustaqillik yillarida respublikada sanoatni diversifikatsiyalashga – iste‘mol mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratildi. Ushbu sa‘y-harakatlar natijasida respublikada iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bir necha marta o‘tdi. Xususan 2010-2022-yillar oralig‘ida iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish 10,6 martadan ortiq o‘tdi (2-rasm). Ushbu hol respublikada boy oziq-ovqat va yengil sanoati xom ashyosi bazasi bo‘lishi qatori mashinasozlik va boshqa tarmoqlarda noozuqa iste‘mol mahsulotlari miqdorining ham ortib borishi bilan bog‘liq.

Respublikada hozirgi kunda keng assortimentdagi qandolat, go‘sht, meva va savbzavot konservalari va mahsulotlari qatori, kiyim-kechak, maishiy texnika kabi tovarlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Bunda iste‘mol mahsulotlari xorijdan keltirilgan xomashyo hamda butlovchilar asosida ham ishlab chiqarilmoqda.




A



2-rasm. Respublika sanoati A va B guruhi (A) va B guruhi tarkibining (B) turlanishi (mlrd. so'm va foizda).

Rasm muallif tomonidan statistik ma'lumotlar asosida tuzilgan.


Yangi ming yillikda iste'mol mahsulotlari hajmining o'sishi Xorazm (29,63), Jizzax (16,02), Toshkent (13,7) va Namangan (13,23) viloyatlarida eng yuqori, Qashqadaryo (4,61) va Surxondaryo (5,96) esa respublika o'rtachasidan ancha past ko'rsatkichlar qayd etildi. Bunda iste'mol mahsulotlari hajmida oziq-ovqat iste'mol mahsulotlarining ulushi 2/5 ni tashkil etmoqda. Ya'ni respublika sanoatida "B" guruhga kiruvchi tarmoqlar ulushi ortishi kuzatilmoqda (2, 3-rasmlar).



3-rasm. Respublika viloyatlarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish sur'ati (2010-yilga nisbatan, marta).

Rasm muallif tomonidan statistik ma'lumotlar asosida tuzilgan.

Ta'kidlanganidek iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning ortishi sanoat tarmoq tarkibiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Xususan, metallurgiya sanoati (sanoat mahsulotidagi hissasi (19,5 %) yetakchiligi saqlanib qolgan holda (asosan rangli va qimmatbaho metallar eritish hisobiga) mashinasozlik va metallni qayta ishlash (18, %), yengil sanoat (14,6 %) va oziq-ovqat (14,9 %) sanoati ulushi muttasil ortib kelmoqda (3-rasm).



4-rasm. Respublika sanoati tarmoq tarkibi. 2024-yil, foizda.

Rasm muallif tomonidan statistik ma'lumotlar asosida tuzilgan.

Ushbu hol ijobiy holat bo'lib yetakchi iqtisodchilar keng xalq iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda eksportini yo'lga qo'ygan davlat o'z sanoatini yuksaltirish va yuqori iqtisodiy o'sishini ta'minlay oladi deb qayd etishgan [2].

Respublika hududlarining sanoat ishlab chiqarishi dinamikasi tahlil qilinsa ayrim noxush tendensiyalar ham kuzatiladi. Xususan, XX asr 80-yillarida respublika sanoati mahsulotining 1/3 qismidan ortig'ini Toshkent iqtisodiy rayoni ta'minlar edi. 90-yillarda esa gorizontaliq iqtisodiy aloqalarning uzilishi iqtisodiy rayondagi gigant korxonalarning inqiroz holatiga tushib qolishiga olib keldi va bu nafaqat iqtisodiy rayon, balkim respublika sanoati va iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatdi.

Yangi asrning 1-o'n yilligi o'rtalaridan Toshkent iqtisodiy rayoni sanoati eskilarini modernizatsiyalash va yangi quvvatlarni barpo etilishi hisobiga oldingi salohiyatini qayta tikladi. Hozirgi kunga rayonda respublika sanoatining 35-36 foizi hosil qilinmoqda (5-rasm).



5-rasm. Respublika sanoati hududiy tarkibi. 2016-2024-yil, foizda.

Rasm muallif tomonidan statistik ma'lumotlar asosida tuzilgan.

Mamlakat sanoat tarmoqlar tizimi tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim hududlar faqat tog'-kon, ya'ni xomashyo qazib olishga ixtisoslashgan, boshqalarida esa asosan yengil, oziq-ovqat sanoati rivojlangan. Vaholanki, milliy iqtisodiyotni mustahkamlashda ko'p ukldadi sanoat ishlab chiqarishini shakllantirish katta ahamiyatga ega (1-jadval).

1-jadval. Respublika hududlari sanoat tarmoq tarkibiy o'zgarishi (foiz hisobida)

Sanoat tarmoqlari majmui	Yil	Buxoro	Navoiy	Samarqand	Jizzax	Sirdaryo	Toshkent	Toshkent sh
Elektr energetika	1991	0,2	4,8	0,1	0,1	23,4	6,9	1,5
	2024	3,8	5,6	1,8	1,3	40,2	10,5	4,3
Tog'-kon sanoati	1991	0,9	-	-	-	-	0,5	-
	2024	0,8	12,2	1,8	0,9	0,4	4,2	12,4
Metallurgiya sanoati	1991	1,9	60,6	1,4	3,1	-	27,2	0,7
	2024	0,5	65,1	8,9	0,1	1,5	35,2	12,6
Kimyo va neft kimyosi	1991	-	10,5	2,8	1,5	0,4	9,6	5,4
	2024	42,7	5,7	4,9	3,2	8,5	10,0	8,7
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	1991	2,6	0,8	13,4	5,3	4	8,3	40,6
	2024	2,2	2,3	13,9	51,7	6,8	10,2	24,9
Qurilish materiallari sanoati	1991	3,2	3,1	3,1	4,8	4,4	7,2	4,3
	2024	5,0	2,4	5,8	10,9	6,1	4,1	5,2

Yengil sanoat	1991	73,6	7,2	32,2	61,5	51,5	17,9	21,2
	2024	21,7	3,1	19,8	18,6	15,3	8,5	6,0
Oziq-ovqat sanoati	1991	16,2	4	44,4	22,2	15,6	18,7	14,1
	2024	21,2	3,4	38,8	10,6	20,0	14,5	20,0
Boshqa sanoat tarmoqlari	1991	1,4	0	1,6	1,5	0,7	3,7	19,2
	2024	2,1	0,3	4,2	2,6	1,2	2,9	5,9

davomi

Sanoat tarmoqlari majmui	Yil	Andijon	Namangan	Farg'ona	Qoraqalpog'iston R.	Xorazm	Surxondaryo	Qashqadaryo
Elektr energetika	1991	0,1	0,1	1,5	4,6	0,5	0,1	0,6
	2024	1,0	16,0	6,4	13,2	3,0	4,5	13,6
Tog'-kon sanoati	1991	0,7	-	10,5	-	-	0,1	33,3
	2024	1,6	1,3	0,4	1,6	0,1	3,8	4,7
Metallurgiya sanoati	1991	-	0,8	-	-	0,1	-	-
	2024	0,1	2,4	0,7	0,8	0,2	0,8	0,1
Kimyo va neft kimyosi	1991	0,1	1,6	5,3	0	0,1	0,1	0,3
	2024	2,1	4,5	18,1	34,3	1,0	3,4	26,6
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	1991	14,5	6,2	3,6	4,5	4,3	3,2	2,4
	2024	62,8	9,6	9,6	1,4	43,3	10,0	1,6
Qurilish Materiallari sanoati	1991	2,6	3,5	2,5	8,4	4,7	5,3	4,2
	2024	1,6	5,6	12,2	4,7	3,2	12,5	6,0
Yengil sanoat	1991	57,5	64,4	57,7	47,5	59,3	62,8	39,9
	2024	23,9	36,0	34,6	21,6	21,0	45,2	27,0
Oziq-ovqat sanoati	1991	21,7	17,5	15,1	33,1	29	26,6	18,6
	2024	5,9	19,5	14,8	20,4	25,5	15,2	18,7
Boshqa sanoat tarmoqlari	1991	2,8	0,3	3,8	1,3	2	1,8	0,7
	2024	1,0	4,9	3,2	1,9	2,8	4,7	1,7

Izoh: 1*- 1991-yil, maxrajida -2021-yil.

Jadval statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Toshkent iqtisodiy rayoni sanoatida mashinasozlik, xususan, respublika qishloq xo'ajlik mashinasozligining 85-90 foizi, metallurgiya (bunda mis va po'latning 100 foizi), yengil va oziq-ovqat sanoati yetakchilik qilgan. Hozirgi kunda mashinasozlikning rayon sanoatidagi ulushi biroz pasaygan, metallurgiya va elektr energetikasi ahamiyati ortgan. Oziq-ovqat sanoati ham tez rivojlanmoqda.

Farg'ona iqtisodiy rayonida sanoatida mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati (avtomobilsozlik) yetakchilik

qilmoqda. Yengil sanoati rayonning ikkinchi ixtisoslashilgan sohasining ulushi 1,5-2 marta pasaygan. Neft-kimyo sanoatining faxri Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi quvvatlari hozirda xorijiy "Sanoat Energetika Guruhi" MChJ tomonidan modernizatsiyalanmoqda. To'rao'rg'on IES ning qurilishi iqtisodiy rayon elektr energetikasini yanada mustahkamladi.

Zarafshon iqtisodiy rayoni 90-yillar boshi sanoati oziq-ovqat va mashinasozlik (Samarqand), metallurgiya va elektr energetika (Navoiy), yengil sanoat (Buxoro, Samarqand) ixtisoslashuviga ega bo'lgan. Hozirda Samarqand sanoati tarkibida tarmoqlar darajasida o'zgarishlar kuzatildi. Masalan, Samarqand mashinasozlik sanoatida yuk avtomobillari ishlab chiqarish, rayon kimyo sanoatida (Qorovulbozor) neftni qayta ishlash, fosforit o'g'itlari (Samarqand) xomashyosi (fosforit uni, Qizilqum fosforit kombinati, Navoiy), sintetik kimyoviy tola (Buxoro, Navoiy) ishlab chiqarish tarmoqlari barpo etildi. Respublika to'qimachilik sanoati giganti – Buxoro ip-gazlamalar kombinati quvvatlari qisqarib ketgan [3].

Janubiy iqtisodiy rayoni (Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari) sanoati ixtisoslashuvida unchalik katta o'zgarishlar ro'y bergani yo'q. Faqat gaz kimyo sanoati energiya ishlab chiqarish sikli chuqurlashib polietilen plyonka va quvurlari, aviatsiya yoqilg'isi ishlab ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Surxondaryoda yuk avtomobillari, sement ishlab chiqarish tarmoqi vujudga keldi.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida (Surgil) gaz-kimyo, (Pitnak) avtomobilsozlik, (Qorator) sement, (Qo'ng'iro't) kaustik soda zavodlari asosida yangi tarmoqlar vujudga keldi. Xorazm viloyatida ilk (Yangiariq) yirik issiqlik elektr stansiyasi barpo etildi [5]. Tebinbuloq temir-magnetiti asosida yirik metallurgiya boyitish kombinatining ishga tushirilishi kelajakda pirometallurgik siklini ishga tushirish va iqtisodiy rayonda qudratli mashinasozlik sanoatini barpo etish imkonini beradi.

Xulosa. Ta'kidlash lozimki, respublika sanoatining hozirgi tarmoqlar tarkibi to'raligicha shakllanmagan, unda texnologik jarayonning uzluksizligi ham mavjud emas. Bunday sharoitda sanoat siyosatini energiya ishlab chiqarish tsikllarini vujudga keltirishga qaratilishi katta samara beradi. Jumladan, gidromelirativ, agroindustrial, tekstil industrial, qora metallurgiya, pirometallurgiya, neft – gaz – kimyo, gaz – kimyo, rangli metallurgiya va boshqa energiya ishlab chiqarish sikllarini joriy etish imkoniyatlari mavjud.

Sanoat tarmoqlar tarkibini diversifikatsiyalash mintaqalar miqyosida ham katta ahamiyatga ega. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, Toshkent shahri va Toshkent, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida sanoat turlanganlik darajasi ancha yuqori. Ayni vaqtda Navoiy, Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoati bir tomonlama rivojlangan. Ushbu viloyatlarda sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya darajasini oshirish zarur.

Adabiyotlar

1. Асанов Г., Набихонов М., Сафаров И. Ўзбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий жўғрофияси. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1994. 209-б.
2. Ломакин В.К. Мировая экономика. – Москва: «ЮНИТИ - ДАНА», 2003.
3. Рўзметов Д.Р. Ўзбекистон sanoati rivojlanishining zamonaaviy xususiyatlari va hududiy tarkibi. // ЎзГЖ 2014. №43. 110-113-б.
4. Солиев А.С. Ўзбекистон географияси. – Тошкент: «Университет», 2014.
5. Xudayberganova R. T. Quyi Amudaryo sanoati rivojlanishi va hududiy tarkibini takomillashtirish. Geog. f. n. il. dar. olish. uchun yozilgan diss. – Samarqand: 2023.
6. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>

REZYUME. Maqolada respublika iqtisodiy rayonlarining sanoatining mustaqillik yillarida diversifikatsiyalanishi hamda modernizatsiyalanishi va natijada ixtisoslashuvi o'zgarishining umumiy jihatlar tavsiflangan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассмотрены общие аспекты диверсификации и модернизации промышленности экономических районов республики за годы независимости и, как следствие, изменения в специализации.

SUMMARY. The article examines the general aspects of diversification and modernization of industry in the economic regions of the republic over the years of independence and, as a consequence, changes in specialization.

QISHLOQ XO'JALIGI TARKIBINI OPTIMALLASHTIRISH OMILLARI (Qoraqalpog'iston tabiiy sharoiti misolida)

U.X.Yeshimbetov – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: qishloq xo'jaligi, joylashtirish, tabiiy sharoit, dehqonchilik, chorvachilik, mehnat taqsimoti, tarmoq, ixtisoslashtirish, hududiy tashkil etish.

Ключевые слова: сельское хозяйство, размещение, природные условия, земледелие, животноводство, разделение труда, отрасль, специализация, территориальная организация.

Key words: agriculture, location, natural conditions, agriculture, animal husbandry, division of labor, branch, specialization, territorial organization.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti barcha tarmoqlarga, shu jumladan, qishloq xo'jaligiga ham taalluqli. Biroq qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular iqtisodiy va tabiiy takror ishlab chiqarish jarayonlarining rivojlanish qonuniyatlarini o'zida aks ettiradi. Aynan ushbu jihatlar tarmoqda ishlab chiqarish jarayonlarini joylashtirishga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi [1]. Demak, muayyan tarmoq, ekin va chorva mollarini ustuvor rivojlantirish uchun alohida hududlar va korxonalarining qulay tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlaridan foydalanish mahsulot ishlab chiqarishini ko'paytirish, uning sifatini oshirish, moddiy va mehnat harajatlari kamaytirish hamda qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ta'kidlash joizki, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni joylashtirish hamda ixtisoslashtirish doimo tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning mavjud imkoniyatlariga tayanadi. Bu borada K.I.Ivanov ma'lum hududda «tabiiy, iqtisodiy va mehnat resurslarining hududiy farqlaridan samarali foydalanish ijtimoiy mehnat unumdorligining yuqori cho'qqisini ta'minlaydi» [5], deb ta'kidlagandi.


Qishloq xo'jaligini joylashtirish obyektiv jarayon hisoblanib, tarmoqning muvaffaqiyotli rivojlanishi tabiiy, biologik, kapital va mehnat resurslardan samarali va oqilona foydalanish bilan bog'liq. Ushbu resurslarning hududlarda turli xil bo'lishi qishloq xo'jaligi tarmoqlarining turlicha shakllanishiga zamin yaratadi.

Respublikamizga belgili iqtisodchi D.Tajiboyevaning ta'kidlashicha, sanoat taraqqiyotning bosh dvigateli mehnat quroli bo'lsa, agrar sektorda esa tabiiy omillar yetakchi rol o'ynaydi. Agrar munosabatlar va qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarish jarayoni iqtisodiy qonunlar bilan birga tabiat qonunlari ta'siri ostida ro'y beradi [12]. Tabiiy resurslar – bu butun ijtimoiy ishlab chiqarish tizimi paydo bo'lgan va hali ham mavjud bo'lgan tabiiy asosdir. Qishloq xo'jaligida tabiiy omillar asosiy ahamiyatga ega. Ishlab chiqarishning texnik vositalari muhim, lekin ikkinchi darajali rol o'ynaydi [13].

Tabiiy sharoit qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish salohiyatini belgilab beruvchi obyektiv omildir. Qishloq xo'jaligi salohiyatini belgilashda biz A.A.O'razaliev fikrini qo'llab-quvvatlaymiz. U «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish salohiyati – bu xo'jaliklar va hududlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ularning miqdor, sifat, tarkibiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, resurslar bilan belgilanadigan ma'lum hajmda yetishtirishning obyekt qobiliyatidir» deb ta'kidlaydi [8].

Har qanday hudud qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining oqilona joylashuvi va ixtisoslashuvi aniq tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy, bozor iqtisodiyoti va boshqa sharoitlarni puxta, batafsil o'rganmasdan turib amalga oshirish iqtisodiy samaradorlikning past bo'lishiga hattoki xo'jalik inqiroziga olib keladi (1-rasm).

Olimlar bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishni ixtisoslashtirishga ta'sir qiluvchi omillarni tizimlashtirib, quydagicha taklif qilishadi: tabiiy-iqlim, tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-demografik [4]. Albatta ushbu omillar o'z ichiga tegishli elementlarni birlashtiradi.



1.2.1-rasm. Joylashtirishning asosiy omillari¹

Tabiiy omillar har doim bir qator omillar bilan uyg'unlikda ishlab chiqarishni joylashtirishda u yoki bu rolni o'ynaydi. Tabiiy resurslar ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish, hududni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi [3].

Shuningdek, tabiiy resurslarning mavjudligi, ularning uyg'unligi, miqdor va sifat ko'rsatkichlari ishlab chiqarishning hududiy tuzilishi, tarmoq ixtisoslashuvini ma'lum darajada belgilaydi.

Tabiiy komponentlar ichida eng avvallo, iqlim, suv va tuproq, ya'ni agroiqlimiy resurslarning ahamiyati katta. Iqlim sharoitlari, harorat, yer osti va yer usti suvlari, tuproq xususiyatlari qishloq xo'jaligining tarmoqlar va hududiy tarkibini ko'p jihatdan belgilab beradi [11].

Tabiiy sharoit qishloq xo'jaligi rivojlanishi va uning hududiy farqlarining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Tabiiy sharoitni qishloq xo'jaligida mahsulot

¹ Muallif ishlanmasi.